

“O’PKA RAKINING” SIMPTOMLARI VA ONKOLOGIK ASPEKTLARI

Solijonov Jamshidbek Sodiqjon o’g’li

“Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika” fakulteti

Stomatologiya yo’nalishi 202A guruh talabasi

@solijonovibrohim24@gmail.com

Shaymardonova Zinira Baxtiyor qizi

“1-davolash” fakulteti 206-A guruh talabasi

@zinirashaymardonova3@gmail.com

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

Toshkent, O’zbekiston.

Dolzarbligi. Dunyo bo’ylab o’pka saratoni saratonlarning eng ko’p tarqalgan turi hisoblanib saratondan vujudga keladigan o’limlarning asosiy qismi shu o’pka saratonoiga to’g’ri keladi. 2020-yilda 2,2 millionta yangi holat aniqlangan va 1,8 million nafar odam o’pka saratonidan vafot etgan, bu barcha saraton tufayli o’limlarining 18 foizini tashkil qiladi. O’pka saratonidan o’lim soni 2035-yilga kelib yiliga qariyb 3 million nafarga yetishi kutilmoqda. O’pka saratoni bilan kasallanish geografiya va jinsga qarab keskin farq qiladi, eng yuqori ko’rsatkichlar Mikroneziya, Polineziya, Yevropa, Osiyo va Shimoliy Amerikada; eng past ko’rsatkichlar Afrika va Markaziy Amerikaga tegishli. Global miqyosda erkaklarning taxminan 8% va ayollarning 6% hayotlari davomida o’pka saratoniga chalinishadi. Biroq, erkaklar va ayollardagi o’pka saratoni holatlarining nisbati geografiyaga qarab keskin farq qiladi.

Izlanish maqsadi: “O’pka rakining” simptomlari va asosiy onkologik aspektlarini o’rganish.

Natijalar va muhokamalar. O’pka raki gistologik tuzulishi jihatidan ham juda har xil bo’ladi, gistologik tuzilishiga qarab yassi hujayraki rak adenokarsinomasi, mayda hujayrali, dumaloq hujayrali va aralash rak tafovut etadi. O’pkada turli xillarda rak paydo bo’lishi hozir genlarning zararlanishiga bog’liq bo’lib, shu genlarning zararlanishi natijasida bronxlar epiteliysi o’sma hujayralariga aylanib boradi. Genlar o’zgarishining ko’payib borishi onkogen hujayralar va o’sma supressor genlariga ta’sir ko’rsatadi deb tahmin qilinadi. Mayda hujayrali rak bir qancha onkogenlar, jumladan L-myc, N-myc onkogenlarning o’zgarishi va raf genning mutatsiyaga uchrashi bilan tariflanadi. Bundan tashqari o’smalar supressor genlari - r53 va Rb ning mutatsiyaga uchrab, faolligi yo’golib golishi ham xarakterlidir. Jumladan mayda hujayrali o’pka rakida 3 xromasomaning mana shu



supressor genlar joylashgan gisqa yelkasida kuzatiladi. Yassi hujayrali o'pka rakida o'sish omili reseptorlarining ancha jonli ekspressiyasi kuzatiladiki, bu narsa rakning kelib chigishida shu polipeptidlarning roli bor degan xayolga olib keladi. Adenokarsinomalarning paydo bolishi K-ras genning mutatsiyaga uchrashiga bog'liq. O'pka raki paydo bo'lishining eng katta xavfi chekish ekanligi hozir aniglangan, statistika, klinika va tajriba ma'lumotlari shundan darak beradi. Statistika garaganda, ashaddiy kashandalarda uchraydigan o'pka raki va ular chekib tugatgan sigaretalar soni o'rtasida bevosita bog'lanish bor. Ko'p yillar davomida kuniga 40 tagacha sigaret chekadigan kashandalarda o'pka raki paydo bo'lish ehtimoli 20 baravar ko'proq bo'ladi. Bunday kashandalarning 80 foizida o'pka raki paydo bo'ladi. Sigareta tutuni chekmaydigan odamlarga ham juda zararlidir.

Xulosa. "O'pka rakining" onkologiyada dolzarbligi, patologik anatomiyasi hamda kasallik davrida yuzaga keladigan simptomlarning onkologik asoslarini o'rganish, kasallikni erta aniqlash va patomorfologik holatiga ko'ra to'g'ri davo choralarini tanlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 6) Patologik anatomiya/ M.S. Abdullaxo'jayeva/ Toshkent "Tafakkur-Bo'stoni", 2012. 2-qism . 237-238 betlar
- 7) Библиография Клиническая онкология/Л.З. Вельшер, Б.И. Поляков, С.Б. Петерсон/учебное пособие. - М. : ГЭОТАР-Медиа, 2014. - 496 с. : ил. -ISBN 978-5-9704- 2867-2.
- 8) Онкология:/Н. К.,. Муродхужаев, Т. К,- Худойкулов, М. Д. Жураев. — Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашр., 2002
- 9) „Chapter 1“,Lung Cancer – the facts, 3rd, Oxford University Press, 2010 — 3–4 bet. ISBN 978-0-19-956933-5.
- 10) „Chapter 84: Cancer of the Lung“,Holland-Frei Cancer Medicine, 9th, Wiley Blackwell, 2017. ISBN 9781119000846.

